

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## BUYUK BESHLIKNING ISLOMIY-IRFONiy MOHIYATI TADQIQI

**Zarif Quvonov**

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*E-mail: [zarif\\_1178@mail.ru](mailto:zarif_1178@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy «Xamsa»sining mustaqillik yillarida o'rganilishi, buyuk beshlikning diniy-irfoniy g'oyalari talqini borasidagi mulohazalar taniqli navoiyshunos olimlar Abduqodir Hayitmetov hamda Najmiddin Komilovning ayrim tadqiqotlari misolida o'rganildi. Hazrat Alisher Navoiy asarlari Sharq islom adabiyotining yuksak namunasi ekanligi xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, doston, timsol, g'oyaviy xususiyat, talqin.

**Аннотация:** В статье исследование «Хамсы» Алишера Навои в годы независимости, интерпретация религиозно-мистических идей «Великой пятёрки» рассмотрены на примере некоторых исследований известных навоийских учёных Абдукадира Хайтметова и Наджмиддина Комилова. Произведения хазрата Алишера Навои являются высоким образцом восточной исламской литературы.

**Ключевые слова:** суфизм, эпос, символ, идейный признак, интерпретация.

**Abstract:** In the article, the study of Alisher Navoi's "Khamisa" in the years of independence, the interpretation of religious and mystical ideas of the Great Five were studied on the example of some researches of the famous Navoi scholars Abdukadir Khaitmetov and Najmiddin Komilov. The works of Hazrat Alisher Navoi are a high example of Eastern Islamic literature.

**Keywords:** sufism, epic, symbol, idea, interpretation.

XX asr boshlarida yuzaga kelgan navoiyshunoslik ilmida Hazrat Navoiy biografiyasini tiklash, mutafakkir asarlarini o'rganish va nashr qilish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga mavjud tuzum talablariga xos bir yoqlama fikrlar, ayrim noto'g'ri talqinlar oqibatida bugun ham shoir haqida o'sha paytlari aytilgan fikrlar asosidagi tasavvurlar saqlanib qolganligi ularni o'zgartirishga, ularga xolis munosabat bildirishga, dunyo afkor ommasining Navoiyga munosabatini to'g'irlashga bo'lgan istak-ehtiyojni kuchaytirmoqda. Sobiq sho'ro tuzumi davrida navoiyshunoslik ilmida muayyan ishlar qilinganligini e'tirof etgan holda navoiyshunos olim A. Hayitmetov ta'kidlaganidek, "aksariyat hollarda, Navoiy ijodini siyosiylashtirib talqin etib keldik... Yaqin o'tmishdagi tadqiqotlarda hukmron mafkura belgilab bergan metodologiya ta'siri aniq sezilib turadi. Biroq o'sha davr navoiyshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlardan ko'z yummasligimiz darkor" [1]. Diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi, mumtoz adabiy asarlarning irfoniy mohiyatini ochib berishda Navoiy ijodiyotini ham yangitdan tahlil va talqinlarga ehtiyoj uyg'otdi. Navoiyshunoslikda badiiy matnni tadqiq etish tendensiyalari, baholash mezonlari yangilandi. Bu borada "Xamsa"ning germenivtik tadqiq metodi asosida o'rganilishi badiiy asarning "shaklan tugal badiiy asar mazmunan tuganmas"ligi matn tadqiqi

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

misolida o‘rganishga yo‘l ochdi [2.23]. Shu bilan birga, Alisher Navoiy asarlaridagi komillik va komil inson masalasini badiiyatning muhim qonuniyatlariga asoslanib tekshirish ularni to‘g‘ri baholashga imkon berdi.

“Xamsa” dostoni – Navoiy poetik iste‘dodining ulkan mahsuli. O‘tgan besh asrdan ortiq davr “Xamsa”ning xalqimiz madaniyati tarixidagi muhim voqealardan biri bo‘lganligini ko‘rsatdi. Shu bois bu asarning genezisi, yozilish jarayoni, obrazlar tizimi, badiiy xususiyatlarini tadqiq etish navoiyshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Prof. Abduqodir Hayitmetov ham “Xamsa” asariga qayta-qayta murojaat qilib, uni turli tomondan tadqiq etdi va Navoiyning xamsanavislik borasidagi xizmatlariga haqqoniy baho berdi.

A.Hayitmetov beshlikning ilk asari falsafiy-didaktik xarakterdagi “Hayrat ul-abror” dostonidagi eng muhim o‘ziga xoslik sifatida Navoiyning islom ruhi bilan sug‘orilgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axlohiy-tarbiyaviy qarashlari turli obrazlar orqali emas, balki kitobxonga muallifning bevosita murojaati yo‘lida ifodalanganiga urg‘u beradi. Olim bu dostonida shoirning sobit e‘tiqodi, barcha muhim hayotiy-axloqiy masalalar bo‘yicha ko‘zqarashi aks etganini va bu qarashlar to‘lig‘icha islomiy ekanini: “Navoiy o‘z faoliyatida... “Qur‘on” va “Hadis”larga yaqin turib, unga suyanish orqali ijodida eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tarila oladi va uning bitgan she‘riy satrlari chuqur hayotiy mazmun va **go‘zallik kasb etadi**” [3.66], – **deb ta’kidlaydi.** A.Hayitmetov “Hayrat ul-abror” dostonida muallif qarashlari bilan “Qur‘on” g‘oyalari o‘rtasida juda yaqinlik borligi va buning badiiy samarasini dostonidagi tasvirlar bilan uning oyatlaridan misollar keltirish orqali mulohazalarini dalillaydi.

Alisher Navoiy odamning odamiyligini uning ma‘naviy fazilatlarini ta‘minlashini hayotiy misollar asosida batafsil ochib bergani, dostonidagi pandu nasihatlar komil shaxs shakllanishiga xizmat qilishi mumkinligini qayd etadi. Tadqiqotchi falsafiy-didaktik doston bo‘lmish “Hayrat ul-abror”da Navoiy jamiyatning deyarli barcha qatlamlariga xos ma‘naviy sifatlarga to‘xtalib, jamiyat taraqqiyoti kishilarning xulq-atvoriga bog‘liq ekanini bevosita o‘z nomidan aytgani, tasvir markazida o‘zi turgani asarning ta‘sir quvvatini oshiradi, deb hisoblaydi.

A.Hayitmetovning “Xamsa”da islom nuri”, “Xamsa” va jahon adabiyoti” nomli ilmiy maqolalari ulug‘ shoir dostonlari mohiyatiga yangicha qarash aks etganligi bilan e‘tiborlidir. Olim yozadi: “Alisher Navoiy ijodiyotining shakllanishi va rivojlanishida eng muhim rol o‘ynagan omil. Islom va uning asosini tashkil etgan “Qur‘on” hamda Muhammad payg‘ambar hadislaridir. Lekin navoiyshunoslikda bu masala juda kam o‘rganilgan. Ulug‘ shoir asarlarining yuzaga kelishida ularning g‘oyaviy yo‘nalishiga

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ham, badiiyatiga ham islom dini va uning mazkur kitoblari... shunday darajada katta ta'sir ko'rsatdiki, uning o'rini boshqa biron narsa bilan almashtirish qiyin" [3.32].

Islomda Allohga munosabat, uning bir-u borligiga iymon keltirish, qudratining cheksizligini tan olish, yer-u osmonning, jami jonli-jonsiz narsalarning yaratuvchisi u ekanligiga shirk keltirmaslik, shu bilan birga bandaning uning oldidagi qarzlari va burchlariga sadoqat ko'rsatishi kabi qarashlarning "Xamsa" dostonlaridagi madh, munojot qismlarida quyma holatda badiiylashgani olim asarlarida o'z aksini topa boshlaydi. Olim "Hayrat ul-abror"dagi hamd, na'tlarni to'liq va izchil tarzda o'rganadi. Falsafiy-didaktik dostonidagi barcha beshta na't Hayitmetov tomonidan to'liq qiyosiy tahlil qilinib, quyidagicha ilmiy xulosa chiqariladi: "Agar Navoiy bu muqaddas kitobdagi fikriy yuksakliklarni chuqur egallamaganda, uning she'riyatidagi chuqur falsafiylik va insonga xayrixohlik bu darajada baland bo'lishi... qiyin edi" [3.39]. Istiqloq davriga kelib ustoz Alisher Navoiy "Xamsa"sining ulug'vorligi ko'p jihatdan uning islom nuri bilan sug'orilganida, unda aks etgan g'oyalarning umumbashariy va umrboqiylikida, badiiyatning eng sof an'analari bilan bog'langanida ekanini ko'radi. Olim qarashlaridagi bu mulohazalar Navoiy asarlari, xususan, "Xamsa"ga yangicha nazar bilan qarash va oldingidan jiddiy farq qiladigan to'xtamlarga kelish imkonini berdi. Olim asardagi islomiy qatlamlarni chuqurroq tadqiq etgani sari oldinlari kelishi mumkin bo'lmagan to'xtamlarga keladi: "Navoiy "Xamsa"sidagi na'tlari bilan islomni targ'ib etishga va islomshunoslikka katta hissa qo'shdi. Bu esa uning ijodi, dunyoqarashi va shaxsiyati islom va islom dunyosi bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatuvchi yorqin dalillardan biridir" [3.52].

Istiqloq bergan imkoniyat, muqaddas "Qur'on" va hadislar bilan teran tanishish, ta'sirlanish hamda ular buyuk shoir ijodida nechog'lik chuqur iz qoldirganini sinchkovlik bilan o'rganish asnosida shunday mulohazalarga keladi: "Navoiy "Xamsa"si uning ijodida, o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutar ekan, bu asarning ulug'vorligi ko'p jihatdan Islom nuri bilan sug'orilganida, unda olg'a surilgan g'oyalarning umumbashariyligi va umrboqiylikida, badiiyatining eng sof an'analari bilan bog'langanida va yuksakligida hamdir" [3.68].

Dahoning asarlariga o'zgacha dunyoqarash bilan yondashish va dostonlar zamiridagi asl ma'nolarni kashf etish asnosida Hayitmetov domla "Xamsa"da ulug' shoir estetik qarashlari o'zining oliy nuqtasiga ko'tarilgan! – desak xato qilmagan bo'lamiz", – degan qat'iy xulosaga keladi. Garchi Hayitmetovning mustaqillikkacha bo'lgan tadqiqotlarida Navoiy asarlariga bu tarzda yondashish ko'zga tashlanmaydi. Bu mavjud tuzum ta'siridan, albatta. Ammo olimning umr bo'yi dilida saqlab kelgan fikr-qarashlari, ya'ni Navoiy asarlarining diniy-ma'rifiy mohiyati

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

haqidagi xulosalarini so‘nggi tadqiqotlarida ayta oldi. Darhaqiqat, “Hazrat Alisher Navoiy asarlari sharq islom adabiyotining yuksak namunalari” [4.17].

Navoiyni anglash sari olib boradigan yo‘llar ko‘p. Ulardan biri tasavvuf ekanligiga Najmiddin Komilov birinchilardan bo‘lib e‘tibor qaratdi. Najmiddin Komilov tadqiqotlarida Navoiy ijodining javhari – tasavvuf g‘oyalari va inson qalbi, shoh-u gado hikmati, insonning ma‘naviy kamoloti, Ko‘ngil va g‘ayb olami, axloqiy poklanish va Iloh ishq sirri xususida fikr yuritiladi. Uningcha, Navoiy e‘tiqodining javhari – tasavvuf g‘oyalari va inson qalbi, inson ma‘naviyati va kamoloti masalasidir. “Sharq xalqlari tafakkuri tarixiga chuqur ildiz otgan tasavvuf ta‘limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul”, – deb yozadi uning o‘zi bu haqda” [5.59].

“Xamsa”ning irfoniy mazmun-mohiyati Najmiddin Komilov tadqiqotlarida timsollar va istilohlar talqini bilan ochib beriladi. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarining tasavvuf ta‘limoti asosidagi yangicha talqinlariga bag‘ishlangan “Timsollar timsoli”, “Suqrot – komil inson timsoli”, “Ishq otashining samandari”, “Hikmat va ibrat dostoni”, “Shoh va darvesh hikmati” nomli maqolalari fikrimizni to‘la isbotlaydi [5]. Olim tasavvuf va adabiyot munosabatlariga oid boshqa maqolalarida ham mavzu taqozosiga ko‘ra, “Hayrat ul-abror”, “Sab‘ai sayyor”, va “Lison ut-tayr” dostonlarini ham qayta-qayta tahlil doirasiga tortgan. Jumladan, rostlik va yolg‘onchilik tadqiqiga bag‘ishlangan “Ajrim qiluvchi ko‘zgu” maqolasida “Hayrat ul-abror” va “Sab‘ai sayyor” dostonlaridagi mavzuga doir fikrlar va hikoyatlarga murojaat qiladi. N.Komilov tasavvufdagi “jazba” istilohini sharhlash jarayonida “Xamsa”sining ikki qahramoni – Farhod bilan Majnunni ham ana shunday tug‘ma jazba tekkan kishilar sifatida baholaydi. Tasavvuf bilimdonlarining tug‘ma faqirligi ko‘ringan solikni “majzubi solik”, suluk davomida jazba paydo qilgan solikni “soliki majzub” deb nomlaganlarini qayd etadi. Yoxud Iskandar, Farhod timsollarini ilohiy ishqqa muhtalo oshiq sifatida talqin etadi. Yoxud Majnun timsolini: “Majnun ishq bu borada oliy namuna, chunki, u butun vujudi, joni dili ila Ilohni sevadi, ayni vaqtda esa shafqat muruvvati, najib axloqiyu beqiyos iste‘dodi bilan eng go‘zal inson” [5.74], “Majnun – oshiqlikning umumlashma obrazi, unda oshiqqa xos jamiki xususiyat – xoksorlik, kamtarlik, beozorlik, niyozmand bo‘lish, malomatlariga chidash hislatlari mavjud. Uning dardlari umuminsoniy dard, chunki Allohdan firoqda qiynalish, oliy maqsad – ilohiyot vasliga intilish har bir pok insonda bo‘lmog‘i darkor” [5.85] deb Qaysning ishq Allohga va U yaratgan yaratqilarga qaratilganini

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ta’kidlaydi hamda unday insonda yuqorida ko’rsatilgan fazilatlar mo’jassam bo’lmog’ini she’riy misollar tahlili orqali ko’rsatib beradi.

“Navoiy dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo’lsak, uning markazida, shubhasiz islom axkomi va tasavvuf ta’limoti yotadi,—deb yozadi olim. Zero, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi insof, saxovat va muhabbat haqidagi fikr-o’ylari, ezgulikka payvast buyuk tafakkur olami shu ta’limot negizida shakllandi” [5.3].

Navoiyshunos olim Najmiddin Komilovning “Farhod va Shirin” dostonidagi ajdaho – nafs, Ahraman dev – salatanat (hokimlik) va temir paykar – ro‘yo-yolg‘on timsoli sifatida talqin etadi. “To‘rt manzil deganda, asosan, nafs, qalb, ruh va aql nazarda tutilganini ham e’tibordan qochirmaslik kerak. Diniy-tasavvufiy manbalarda keltirilishicha, odamzod vujudini shu to‘rt asos tashkil etadi va ularni bu dunyo manzilidan toza, pok holda olib o‘tish buyurilgan” [7.51]. Munaqqid Navoiy asarlaridagi insonga xos xislat va xususiyatlar: qanoat, saxovat, ma’rifat, adolat – yaxlit odamiylik konsepsiyasi ekani, uning o‘zagi islom va tasavvuf g‘oyalari, shoirning yuragidan chuqur joy olgan, uning qalbiga ISHQ bo‘lib, Mutlaq ezgulik bo‘lib singib ketgan insonparvarlik g‘oyalari ekanligi “Xamsa” dostonlaridan olingan misollar orqali talqin etadi.

“Navoiy she’riyatida muazzam bir muvozanat, so‘z bilan ifodalash qiyin ichki mutanosiblik bor,— deb yozadi I.Haqqul. Unda hamma narsa joy-joyida, ma’no-mohiyatdagi tadrijiylik Alloh va vahdat qudratidan dalolat berib turadi” [6.24]. Sharqda islom g‘oyalarini badiiy asarlar orqali targ‘ib qilishda tasavvufdan foydalanilgan. Milliy mustaqillik sharofati mumtoz adabiyotimizda yaratilgan badiiyat durdonalarini islom ma’rifati, tasavvuf ta’limoti jihatidan o‘rganish, xalqimiz ma’naviyatiga yetkazishga yo‘l ochdi.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳайитметов А. “Шеърки, ҳам тушти менинг шонима” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил, 9 февраль
2. Эркинов. А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV-XX аср боши). Тошкент, 2018. 280 б.
3. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти (тадқиқотлар, мақолалар, лавҳалар). – Т.: Фан, 1996. 250 б.
4. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Тошкент: “Adabiyot”, 2021. 256 б.
5. Комилов Н. Хизр чашмаси. Тошкент: “Маънавият”, 2005. 320 б.
6. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 3-китоб. Тошкент: “Tafakkur”, 2016. 224 б.
7. Бобомурод Эрали. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. Тошкент: “Akademnashr”, -80 б.